
“AMIRA TEXTILE” KORXONASIDA MA’NAVIYAT FESTIVALI BO’LIB O’TDI

Bugun tumanimizga tashrif buyurgan "Ma'rifat" targ'ibotchilari "Amira Textile" trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonaning ko'p sonli ishchi-xodimlari bilan uchrashdilar.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan "Xalq Konstitusiyasi bilan xalqchil davlat sari!" shiori ostidagi Ma'naviyat festivali doirasida shoir va yozuvchilar, san'atkorlar korxonada ishchi-xodimlariga yangilanayotgan Konstitusiyaning mazmun-mohiyati haqida tushunchalar berdilar.

"Ma'rifat" targ'ibotchilari pedagogika fanlari doktorlari Zuhra Ismoilova hamda Musallam

Abdujabborovalar yangilanayotgan Konstitusiyaga jamiyatimizning milliy taraqqiyot ehtiyojlaridan kelib chiqayotgan hayotiy zarurat bo'lib, Yangi O'zbekistonni bunyod etishning huquqiy asoslarini mustahkamlashdagi istiqbolli qadam ekanligini ta'kidlab o'tdilar.

Tadbirda san'atkor Rasuljon Qodirxonov tomonidan yangragan diltortar qo'shiqlar barcha ishtirokchilarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishladi.

2023-04-01 16:32:42